

MILLIY G‘OYA VA TARIXIY XOTIRA TUSHUNCHALARI, MILLIY G‘OYANI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY XOTIRANING O‘RNI VA AHAMIYATI.

*Qo‘qon davlat pedagogika insituti Tarix fakulteti MG‘MAHT yo‘nalishi
2-bosqich talabasi Vahobov Shahbozbek Bobomurod o‘g‘li.*

@vahobov_shahboz. (90) 858-64-04

Annotasiya. Dunyoda bo‘layotgan mafkuraviy va g‘oyaviy kurashlar davrida g‘oya va mafkuraviy tahdidlarga qarshi tura olish uchun albatta xalq yoki millat ongida milliy imunitet shakllangan bo‘lishi zarur. Bu imunitet o‘z holicha shakllanmaydi buni xalqning o‘zi shakllantiradi, albatta bu imunitet milliy g‘oyadan ozuqa oladi. Milliy g‘oyaning eng muhim asoslaridan bir bu tarixiy xotiradir. Tarixiy xotira milliy g‘oyaning poydevoridir, zero tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.

Kalit so‘zlar. Milliy g‘oya, tarixiy xotira, mafkura, qadriyat, g‘oya, g‘oyaviy kurash, mafkuraviy paligon, milliylik.

Eng avvalo milliy g‘oya haqida so‘z borar ekan dastlab g‘oya o‘zi nima qanday ma‘no va mazmun bildirishini tahlil qilish zarur. G‘oya — inson tafakkurida vujudga keladigan, jamiyat va odamlarni maqsad sari yetaklaydigan fikr. Unda olamni bilish va amaliy o‘zgartirish maqsadlari, ularga erishish yo‘llari va vositalari mujassam bo‘ladi. Har qanday fikr ham g‘oya bo‘la olmaydi u g‘oyaga aylanishi uchun nazariy tomondan puxta o‘ylanishi va ortidan odamlarni ergashtira olishi uchun ko‘pchilikka manfaat bera olishi lozim.

Milliy g‘oya — muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan va o‘zida butun millat maqsadi va manfaatini ifodalaydigan fikrlar majmuyi. U millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi. Milliy g‘oya o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo‘lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo‘lgan vazifalar va mo‘ljallarni ham aks ettiradi. Ana shu negizlarga tayangan holdagina u millatning qisqa vaqt va uzoq vaqtga erishish lozim bo‘lgan maqsad-muddolari va mo‘ljallarini to‘g‘ri ifodalay olishi mumkin. Har qanday milliy g‘oyada umuminsoniy mohiyat mavjud bo‘ladi. Unda aniq bir millat yoki umuman insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan g‘oyalar ham bor. Masalan, "Milliy yarash" g‘oyasi fuqarolar urushi ketayotgan davlat uchun hayotiy mazmunga ega bo‘lsa, "Manfaatli hamkorlik" g‘oyasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun birdek ahamiyatlidir. Har bir xalq o‘z tarixining burilish nuqtalarida, avvalo mafkura masalasini, uning o‘zagini tashkil etadigan, o‘ziga xos o‘q, birlashtiruvchi yadro vazifasini o‘taydigan ijtimoiy g‘oyani shakllantirish muammosini hal etadi. Bunga esa milliy g‘oya orqali erishiladi.

milliy g'oya muayyan darajada insoniyat takdiriga ta'sir qiladi. Milliy g'oya yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlar qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda va xalqning maqsad-muddaolarini o'zlarida shakllantirishda, ularni komil inson darajasida tarbiyalashda ahamiyati katta. Milliy g'oya vositasida millat va xalq birlashadi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi. Milliy g'oya ana shunday kuchli bir mafkuraviy birlik hisoblanadi milliy g'oya kuchli va xalqchil bo'lishi bir nechta uni oziqlantiruvchi manbalarga bog'liq. O'sha asoslarning eng muhimlaridan biri bu tarixiy xotiradir.

Milliy g'oyada tarixiy xotiraning o'rni va ahamiyati juda katta. U bir millat o'zining tarixini, madaniyatini, adabiyotini va milliyligini saqlab qolishini ta'minlaydi. Tarixiy xotira, millatning o'zining qadimiyligini, yuksak istiqbollari va muhim voqealarini yodga soladi. Bu esa millatning mustaqil davlat sifatida o'zining o'ziga xos kimligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Tarixiy xotira, millatning yuksak maqsadlarini va rejalarini eslatib turadi va u asosida yangi pokiza tuzilishlar va rivojlanish yo'lga qo'yiladi. Bu esa millatning mustaqil davlat sifatida o'zining kim ekanligini va kecha kim bo'lganligini bildirib va ularni g'oyaviy tomondan oziqlantirib turadi. Bundan tashqari, tarixiy xotira millatlarning bir-biriga hurmat ko'rsatishda ham muhim ro'l o'ynaydi. Millatlarning tarixi, ularning bir-birlariga munosabatlari va muloqotlari haqida bilim beradi va bu esa do'stlik, hamkorlik va birdamlik aloqalarini kuchaytiradi. Shuningdek, tarixiy xotira millatlarga kelajakka yo'naltiruvchi bo'lib faol ishtirok etish uchun ilhom beradi. Tarixdagi yaxshi amallar va yomonliklardan o'rganib chiqib tarixdagi xatolarni takrorlamaslikka va yahshi qilingan amallarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, bugungi holati va ertanga istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mexnati, faoliyati, hayotiy maqsadlari malum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bo'lishga yonaltirilgan bo'ladi.

Yoshlarimiz o'z xalqi, mamlakat tarixini, milliy-ma'naviy merosini, qadriyatlarini toptamasligi, o'ziga xoslikni yo'qotmasligi uchun ham milliy g'oyani o'rganishni, va uni bilishi kerak boladi. Mustaqillikni mustahkamlash uchun xalqimizni birlashtiradigan, uning asriy ezgu maqsadlariga ega bo'lgan kelajagi buyuk davlatni barpo etish, har bir shaxsning hayotiy manfaatlarida mujassam etadigan milliy mafkurani shakllantirish ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotimizning muhim shartiga aylanmog'i lozim. Milliy g'oya xalqimizga nafaqat o'z tarixini odilona, obektiv va xolisona o'rganish imkoniyatini yaratadi, balki millat sifatida shakllanish davridagi murakkab sharoitlardan kelib chiqish sabablarini ko'rsatib beradi. Chunki, milliy g'oya xalqimizning qadimiy va boy tarixidan, ulug' alloma, ajdodlarimizning

hikmatlari va hayotiy o'gitlaridan, bunyodkor g'oyalaridan ozuqa olgan. Shuning uchun ham, tarixni buyuk murabbiy, tarbiya va ibrat manbai deyiladi. Mustaqillikka erishgandan keyin milliy qadriyatlarning, muqaddas dinimizning tiklanishi, milliy taraqqiyot uchun ma'naviy muhitni yaratib bermoqda. Buyuk ajdodlarimizning ma'naviy merosi g'oyaviy barkamollik uchun oziq bo'lmoqda, Lekin, shuni ham aytish kerakki, bizning tariximizga mahliyo bo'lib, kelajakni unitishga haqqimiz yo'q. Tarixiy tajribalardan saboq olish, undan xulosalar chiqarish milliy g'oyani, jamiyat mafkurasi sifatida xalq ishonchi va e'tiqodiga aylantirish zarur. Shuning uchun ham birinchi prezidentimiz I.A.Karimov: «Jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi» deb takidlaydi.

Darhaqiqat birinchi prezidentimiz I.Karimov tarix va tarixiy xotiraning ahamiyatini juda yuqori baholab o'zining asarlarida bir necha bor takidlaydi. Haqiqatdan ham bu tushuncha millatning kim ekanligini va kim bo'lganligini ko'rsatib beruvchi ko'zgudir tarixiy xotira nafaqat milliy g'oyada balki xalqimiz hayotida ham chuqur ma'no kasb etmog'i lozim. Chunki milliylikimiz belgisi bo'lgan qadriyatlarimiz va xalqimiz mentalitetini aynan tariximiz ochib beradi buni esa, aynan hozirgi davrda yosh avlodga singdirish orqali ularni manan yetuk va millati uchun jon kuydiruvchi shaxslar sifatida tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I. Karimov . Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.
2. I. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
4. <https://uz.m.wikipedia.org>.